



HARAKAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA TEXNIK VOSITALARNI AHAMIYATI

Sobirov Ravshan Rahimjon o'g'li, talaba,

Ilmiy rahbar: X. Baynazarov

Andijon mashinasozlik instituti

Annotatsiya. Avtomobil yo'llaridagi yo'l belgilari, yo'l chiziqlari, yo'l to'siqlari bilan jihozlash va ularga qo'yilgan talablar haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Yo'l belgilari, yo'l chiziqlari, yo'l to'siqlar.

KIRISH. Avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini ta'minlashda harakatni boshqarishning texnik vositalari juda muhimdir. Ular yo'l-transport hodisalarining oldini olish, avtomobillarni tartibli va samarali ravishda harakatlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan vositalardir.

Texnik vositalar orqali harakatni boshqarish yo'l belgilari, svetoforlar, yo'l chizgilar, hamda signalizatsiya tizimlarini o'z ichiga oladi. Bu vositalar yo'lovchilar va haydovchilarning xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish, transport vositalarining xavfsizligini oshirish va yo'l harakatida tartibni saqlash uchun ishlatiladi.

Bu bosqichda, harakat xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadlari va texnik vositalarning ahamiyati haqida batafsilroq ma'lumotlarni keltirib o'tish muhimdir. Har bir texnik vositaning qanday ishlashi, ularning samaradorligi va haydovchilar va yo'lovchilarga qanday yordam berishi haqida tahlil qilish kerak. Shu bilan birga, harakatni boshqarishning texnik vositalarini doimiy ravishda yangilab borish va ularning zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyasini ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega.

Ushbu kirish qismi orqali, harakat xavfsizligini ta'minlashda texnik vositalarning muhimligini yoritib, asosiy mavzuga kirish mumkin. Shu bilan birga, harakat xavfsizligini oshirish uchun yangi texnologiyalar va yangiliklarning qanday qo'llanilishi haqida misollar keltirishingiz mumkin.



ASOSIY QISM. Avtomobil yo'llarida va shaxar ko'chalarida yo'l belgilarini, yo'l chiziqlarini, yo'l to'siqlarini va transport xamda piyoda svetoforlarini o'rnatish GOST 23457-86talablariga javob berishi kerak. O'zbekiston Respublikasi xududida foydalanishdagi yetti guruhdagi: ogohlantiruvchi, imtiyoz, ta'qiqlovchi, buyuruvchi, axborot-ko'rsatuvchi, servis, qo'shimcha axborot yo'l belgilari Venada 1968 yil qabul qilingan yo'l belgilari Konvensiyasiga va bu Konvensiyani to'ldiruvchi Jenevadagi 1971 yil Yevropa Kelishuvi talablariga to'liq mos keladi.

Avtomobil yo'llarida yo'l belgilari quyidagi ketma-ketlikda o'rnatilishi kerak: kursatuvchi (axborot-kursatuvchi); imtiyoz; Servis va tablichkalar; ogohlantiruvchi; buyuruvchi; ta'qiqlovchi. O'rnatiladigan yo'l belgilarining umumiy soni yo'lda iloji boricha kam bo'lishi kerak. Xar bir o'rnatilayotgan ogohlantiruvchi yoki ta'qiqlovchi yo'l belgilari asoslangan bo'lishi shart va yo'l sharoiti yomonlashganligi oqibatida ko'rilgan majburiy chora deb tushunilishi kerak. Shuning uchun ogohlantiruvchi va ta'qiqlovchi belgilar ko'pchilik xollarda vaktincha o'rnatilib, ma'lum yo'l sharoiti yaxshilangandan so'ng olib tashlanishi kerak. Shuningdek, mavsumga qarab o'rnatiladigan yo'l belgilarini xam vaqt o'tishi bilan tezda olib tashlash kerak. Yo'l belgilarini shunday o'rnatish kerakki, ularni kunning yorug vaqtida ko'rish masofasi 150 m dan kam bo'lmasligi kerak. Xaydovchiga u yoki bu uchastkada o'rnatilgan belgini ko'rish masofasining qiymati shu uchastkadagi tezlikning ikki barobariga yoki undan katta qiymatiga teng bo'lishi kerak. Bu xolatda yangi ko'rilayotgan yo'llar uchun tezlik xisobiy tezlikdan 70% olinsa, foydalanayotgan yo'llarda esa transport vositalarining 85 % tezligidan oshmaydigan tezlik qabul qilinadi.


Xarakatning tartibini belgilovchi yo'l belgi chiziqlariga yo'lning qatnov qismiga, to'siqlarga va boshqa yo'l inshootlariga tushiriladigan chiziqlar, yozuvlar va xar xil belgilar kiradi. Avtomobil yo'llarida xarakatni tashkil qilishning samarali usullaridan biri yo'l belgi chiziqlarini ishlatishdir. Yo'l belgi chiziqlarini ishlatish yo'l-transport xodisalari sonining 30-50% kamayishiga olib keladi. Ishlatilish vazifasi bo'yicha yo'l belgi chiziqlari yo'l belgilariga ko'pincha mos keladi.

Yo'l belgi chiziqlari ikki guruxga bo'linadi:

1. Gorizontal.

2. Vertikal.


Gorizontal yo'l belgi chiziqlari takomillashtirilgan qoplamali yo'llarda tushiriladi (1-rasm).



1-rasm. Yotiq chiziqlar

Gorizontal belgi chiziqlari birinchi yo'l chiziqlari guruxiga kirib, jami 23 xil bo'ladi.

Vertikal yo'l belgi chiziqlari turli tayanchlarni, ko'prik, yo'l o'tkazgichlarning to'siqlarini, tunellarning devorlarini, yo'l to'siqlarining yon tomonlarini, xavfli joylarda o'rnatilgan xavfsizlik orolchalarini belgilashda ishlatiladi (2-rasm).



2-rasm. Tik chiziqlar

Vertikal belgi chiziqlari ikkinchi yo'l belgi chiziqlar guruxiga kirib, jami 7 xil bo'lali.

Termoplastlar bilan belgilangan yo'l belgi chiziqlarining qalinligi 6 mm dan oshmasligi kerak. Tishlashish koefitsiyenti esa xo'l xolatida $\varphi=0,4$ dan kam bo'lmasligi lozim. Termoplastlarga ko'yiladigan asosiy talab darz ketmaslik, issikda erib ketmaslik va ok rangli bulish, nur qaytarish xususiyati. Kraskalar bilan belgilangan

yo'l belgi chizig'i tez yedirilib ketmasligi zarur. Yo'l belgi chiziqlarining rangi oq, qora va sariq rangda bo'ladi.

Avtomobil yo'llarida yo'l to'siqlari transport vositalarining, piyodalarning xarakatini tartibga solish va yo'l-transport xodisalarining oldini olish xamda ularning og'irlik darajasini pasaytirish uchun o'rnatiladi (3-rasm).



3-rasm.Yo'l to'siqlari

Yo'l to'siqlari qo'llanish sharoitlariga qarab ikki guruxga bo'linadi. Birinchi guruxga «baryer» konstruksiyali (balandligi 0,75 m dan kam bo'lmagan) va Devorsimon («parapet» shaklidagi balandligi 0,6 m dan kam bo'lmagan) yo'l to'siqlari kiradi. Bu guruxdagi to'siqlar transport vositalarini yo'l poyida, ko'priklarda, yo'l o'tkazgich joylarida ushlab qolish va qarama-qarshi tomondan xarakatlanayotgan transport vositalari to'qnashuvining oldini olish xamda yo'l mintaqasida joylashgan xar xil predmentlarga (yoritgich, ko'prik tayanchlari, daraxtlar va x.k.) kelib urilishidan saqlash uchun o'rnatiladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytsak Bugungi kundagi mamlakatimizda tirbandlik asosiy muammo bolib kelmoqda.Tirbandlik ortidan havoni ham ifloslanish darajasi ortib bormoqda,bularni bartaraf etishni birgina yechimi bir tomonlama palasalar sonini 6va undan ortiqqa ko'paytirish,jamoat transportini ko'paytirish,iloji boricha shaxsiy transportni shahar ichida kamaytirish va vesiped yo'laklarini ko'paytirish insonlarni velosiped orqali ishga borib kelishlarini tadbiq qilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isamuhamedova, D.U., M.K. Mirzayev "Zamonaviy shaharsozlik nazariyasi" O'quv qo'llanma. Toshkent-2015 y (12-13 b.).



2. SHNQ 2.05.02-07 // Avtomobil yo'llari // Toshkent - 2008.
3. K.X.Azizov Xarakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. Toshkent - 2009 yil
9. Baynazarov, K., Xasanboy, S. (2024). Problems of Development of Transport and Road Transport Infrastructure of Andijan City. American Journal of Traffic and Transportation Engineering, 9(4), 63-66. <https://doi.org/10.11648/j.ajtte.20240904.11>
10. X.R.Baynazarov, Sh.A. To'rayev, X.R. Sotvoldiyev, A.R. Nosirov /YO'L-TRANSPORT HODISALARINING YUZAGA KELISH SABABLARINI TAHLIL QILISH/ "Zamonaviy sanoat ishlab chiqarish tarmoqlari va ilm - fan taraqqiyoti globallashuvida metrologiyaning zamonaviy muammolari va yechimlari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari – Andijon: AndMI nashri, 2024. 922 bet
11. X.R.Baynazarov, Sh.A. To'rayev, X.R. Sotvoldiyev, A.R. Nosirov / HAYDOVCHILARGA BOG'LIQ XOLDA SODIR ETILGAN YO'L TRANSPORT HODISALARI TAHLILI/ "Zamonaviy sanoat ishlab chiqarish tarmoqlari va ilm - fan taraqqiyoti globallashuvida metrologiyaning zamonaviy muammolari va yechimlari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari – Andijon: AndMI nashri, 2024. 926 bet
12. Baynazarov Xayrullo Rahimovich, Sotvoldiev Xasanboy Rasuljon o'g'li, Erkinov Asrorbek Abdurashid O'g'li / ANDIJON SHAHRIDA HAYDOVCHILAR ISHTIROKIDA YÒL-TRANSPORT HODISALARI TAHLIL / JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH [Vol. 7 No. 5 \(2024\)](#), 98-101 bet
13. Baynazarov Xayrullo Rahimovich, Sotvoldiev Xasanboy Rasuljon o'g'li, Erkinov Asrorbek Abdurashid O'g'li / YO'L-TRANSPORT HODISALARINING YUZAGA KELISH SABABLARINI TAHLIL QILISH / JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH [Vol. 7 No. 5 \(2024\)](#), 107-113 bet